

**BO'LAJAK AKTYORLARNI KASBIY MAHORATINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING  
QARASHLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li,**

**Mustaqil tadqiqotchi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirish jarayonida jadid ma'rifatparvarlarining qarashlaridan samarali foydalanish metodikasi tahlil qilinadi. Jadidlar ta'lim-tarbiya, estetik dunyoqarash va ma'naviy kamolot masalalariga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, ularning ilg'or pedagogik g'oyalari zamonaviy aktyorlik ta'limida muhim o'rin tutishi mumkin. Maqolada jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari asosida shakllantirilgan metodik yondashuvlar aktyorlik mahoratini rivojlantirishda qanday qo'llanilishi mumkinligi asoslab beriladi. Shuningdek, aktyorlik san'atida milliylik, ma'naviylik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda jadidchilik merosining ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** jadid ma'rifatparvarlar, aktyorlik san'ati, kasbiy mahorat, pedagogik metodika, milliy teatr, ma'naviy tarbiya, estetik dunyoqarash

**Аннотация.** В данной статье анализируется методика эффективного использования взглядов джадидских просветителей в процессе совершенствования профессионального мастерства будущих актеров. Джадиды уделяли особое внимание вопросам образования и воспитания, эстетического мировоззрения и духовного совершенства, и их прогрессивные педагогические идеи могут играть важную роль в современном актерском образовании. В статье обосновывается, как методические подходы, сформированные на основе педагогических взглядов джадидских просветителей, могут быть применены в развитии актерского мастерства. Также раскрывается значение наследия джадидизма в развитии национального, духовного и творческого мышления в актерском

искусстве.

**Ключевые слова:** джадидские просветители, актёрское искусство, профессиональное мастерство, педагогическая методика, национальный meamp, духовное воспитание, эстетическое мировоззрение

**Abstract.** This article analyzes the methodology for effectively using the views of Jadid enlighteners in the process of improving the professional skills of future actors. The Jadids paid special attention to the issues of education, aesthetic worldview, and spiritual maturity, and their progressive pedagogical ideas can play an important role in modern acting education. The article substantiates how methodological approaches formed on the basis of the pedagogical views of Jadid enlighteners can be applied in the development of acting skills. It also reveals the significance of the Jadid heritage in the development of national identity, spirituality, and creative thinking in acting.

**Keywords:** Jadid enlighteners, acting, professional skills, pedagogical methodology, national theater, spiritual education, aesthetic worldview

**Kirish.** Bugungi kunda san'at sohasi, xususan, teatr va aktyorlik mahoratini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Teatr san'ati nafaqat tomoshabinga estetik zavq bag'ishlovchi vosita, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim madaniy institut sifatida qaraladi. Ayniqsa, aktyorlik kasbini egallayotgan yosh avlod vakillarini milliy g'oya, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada XX asr boshlarida yashab ijod qilgan jadid ma'rifatparvarlarining g'oyalari va qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. Jadidlar o'z faoliyatida inson kamoloti, erkin fikrlash, estetik tarbiya, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy ongni uyg'otish masalalarini ilgari surganlar. Ularning pedagogik va estetik qarashlari bugungi kunda zamonaviy teatr ta'limi uchun boy nazariy asos bo'la oladi.

Mazkur maqolada bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini shakllantirish

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

va takomillashtirish jarayonida jadid ma'rifatparvarlarining ilg'or pedagogik qarashlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, ularning o'zbek madaniyati va teatr san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, teatr sahnasida milliylik va ma'naviylikni targ'ib etishdagi o'rni ham tahlil qilinadi. Maqola bo'yicha ilgari surilayotgan metodik yondashuvlar orqali aktyorlik san'atida o'quvchilarning estetik didi, sahna madaniyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali yo'nalishlar taklif etiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologik asoslar.** Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalasiga oid ilmiy izlanishlar ko'plab pedagogik, san'atshunoslik va teatrshunoslik manbalarida yoritilgan. Jumladan, aktyorlik san'atining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ijodkor shaxsini shakllantirishda ma'naviy qadriyatlar, milliylik va estetik tarbiyaning tutgan o'rni alohida ta'kidlanadi. Ammo bu jarayonda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik va madaniy qarashlaridan foydalanish masalasi hali yetarlicha chuqur o'rganilgan emas.

XX asr boshlarida faoliyat olib borgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat kabi jadidlar o'z asarlari va amaliy faoliyati orqali xalqni uyg'otish, ma'naviy poklanish va estetik tarbiya berish g'oyalarini ilgari surdilar. Ularning faoliyati milliy teatrning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Masalan, Behbudiyning "Padarkush" dramasi orqali jamiyatdagi illatlarni fosh etish, sahna orqali axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarni singdirish – bu san'atning kuchi va maqsadini anglatadi. Avloniy esa o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani san'at bilan uyg'unlashtirib, yoshlarda badiiy-estetik didni shakllantirish muhimligini alohida urg'ulagan.

Zamonaviy adabiyotlarda esa aktyorlik san'atida psixologik yondashuvlar, improvizatsiya texnikalari, sahna nutqi, dramatik obraz yaratish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodikalar keng yoritilgan. Biroq, bu uslublarda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ma'rifiy g'oyalarning yetarli darajada uyg'unlashtirilmasligi ma'naviy bo'shliq yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, jadidlar merosidan foydalangan holda zamonaviy aktyorlik ta'limiga yangi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

g‘oyaviy-ma’naviy asoslar kiritish dolzARB masala hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining san’at va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari, teatr ta’limini takomillashtirish bo‘yicha dasturlar ham ushbu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Ushbu tadqiqotda bo‘lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini jadid ma’rifatparvarlar qarashlari asosida takomillashtirish masalasiga yondashishda bir nechta metodologik asoslar tanlab olindi:

1. Tarixiy-tahliliy yondashuv – Jadidchilik harakatining ijtimoiy-madaniy zaminini, ular tomonidan ilgari surilgan ma’naviy-ma’rifiy qarashlarning tarixiy kontekstini olib berish orqali hozirgi teatr ta’limi bilan bog‘lash imkonini beradi.

2. Taqqoslash va tipologik tahlil – Jadidlar faoliyatidagi estetik va pedagogik tamoyillarni zamonaviy aktyorlik ta’limida qo‘llanilayotgan metodikalar bilan solishtirish, o‘xhash va farqli jihatlarni aniqlash orqali yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – O‘quvchi-aktyorlar bilan amaliy mashg‘ulotlarda jadidlar asarlarini sahnalashtirish, milliy dramalardan parcha tahlili, axloqiy-estetik vaziyatlarni aktyorlik mahorati orqali namoyish qilish orqali ularning sahna tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

4. Madaniy-tarbiyaviy yondashuv – Jadidlar qarashlarining asosiy g‘oyasi – ma’rifat, axloq, badiiy did va milliy o‘zlikni anglashni tarbiyalash bo‘lgan. Shu bois, aktyorlik ta’limida shaxsiy kamolotni maqsad qilgan yondashuv muhim o‘rin tutadi.

5. Integrativ yondashuv – Pedagogika, san’atshunoslik, psixologiya va tarix fanlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida kompleks metodik model ishlab chiqishga asoslanadi. Bu yondashuv orqali aktyorlik san’atining nafaqat texnik, balki ma’naviy-estetik jihatlari ham to‘liq qamrab olinadi.

Jadidlar va sahna san’ati bog‘liqligi. Jadidlar teatrni xalqni uyg‘otish va tarbiyalashning samarali vositasi sifatida ko‘rganlar. Ularga ko‘ra, sahna – bu

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

jamiyatning ko‘zgusi, aktyor esa xalq dardi va orzusini ifodalovchi shaxsdir. Jadid dramaturgiyasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Sahna asarlari orqali ijtimoiy muammolarni ko‘tarish (masalan, "Padarkush", "Iblis", "Yigitlar").
- Badiiy obrazlar orqali axloqiy-ruhiy tarbiya berish.
- Yevropa teatr tamoyillaridan ilhomlanib, uni mahalliy madaniyatga uyg‘unlashtirish.

Bu jihatlar zamonaviy aktyorlar uchun muhim: ular sahna orqali nafaqat rol bajaradi, balki g‘oya targ‘ibotchisiga aylanadi.

Bo‘lajak aktyorlar uchun jadidlar qarashlarining amaliy ahamiyati.

- Axloqiy-ruhiy tarbiya: Jadidlar tomonidan ilgari surilgan odob, axloq, iymon, mehnatsevarlik kabi g‘oyalar aktyorning ichki olami, obrazga kirish qobiliyati va kasbiy etikasini mustahkamlaydi.
- Estetik dunyoqarash: Avloniy va Fitrat asarlarida san’atga berilgan baho – aktyorlarning ijodiy qarashlarini shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.
- O‘zlikni anglash: Aktyorlar milliy obrazlarni talqin etishda o‘z tarixini, qadriyatini his qilishi kerak. Jadidlar merosi esa bu jarayonda boy manba vazifasini bajaradi.

Tavsiya etiladigan amaliy metodikalar (jadid g‘oyalariga asoslangan):

- Rol tayyorlashda axloqiy tahlil: Har bir obrazni yaratishda uning axloqiy pozitsiyasi, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor qaratish (Avloniy uslubiga asoslangan).
- Teatral trenajyorlar: Jadid asarlaridan parcha o‘qish, ifodali nutq orqali sahna his-tuyg‘ularini rivojlantirish.
- Tarixiy dramatik o‘yinlar: Behbudiy, Fitrat, Elbek kabi jadidlarning pyesalarini kichik sahnalashtirish orqali milliy obrazlar bilan ishslash.

Jadidlarning pedagogik yondashuvi va san’at ta’limiga ta’siri:

Jadidlar nafaqat ma’rifatparvar, balki yangi pedagogik tamoyillarni ilgari suruvchilar sifatida ham e’tiborga loyiq. Ularning ta’limdagi asosiy tamoyillari: tanqidiy tafakkur, o‘zini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

bilimlarni singdirishdir. Bu tamoyillar aktyorlarni nafaqat texnik jihatdan, balki g‘oyaviy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham rivojlantirishda muhimdir.

Jadidlarning o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvi:

Jadidlar o‘quv jarayonini interfaol va amaliy shaklda olib borishni taklif qilganlar. Shu jihatdan aktyorlik mahoratini oshirishda ham faqat nazariy bilim emas, balki sahnada jonli ijro, improvizatsiya, dramatik tafakkurni shakllantirish metodlari ahamiyat kasb etadi.

Milliy madaniyat va aktyorlik san’ati uyg‘unligi:

Jadidlar milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishni teatr orqali amalga oshirishga intilganlar. Bu yondashuv bo‘lajak aktyorlarni milliy qadriyatlar asosida shakllantirishda qo‘llanilishi, ularning sahnadagi obrazlari milliy ruhda boy va chuqur bo‘lishini ta’minlaydi.

Metodik jihatdan sahna asarlarini tahlil qilish:

Jadid asarlarini tahlil qilish va sahnalashtirishda ularning ijtimoiy mazmuni, axloqiy g‘oyalari asosida talabalarga ijodiy vazifalar berish orqali aktyorlik mahoratini shakllantirish mumkin. Bu metodika aktyorlarni faqat texnik tomonidan emas, balki g‘oyaviy jihatdan ham yetuk etadi.

**Muhokama.** Bo‘lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali, murakkab va izchil metodik yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Ushbu jarayon nafaqat sahna mahorati, dramatik fikrlash, nutq texnikasi kabi amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishni, balki aktyorning ichki dunyosini, ma’naviy-estetik tafakkurini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu nuqtada jadid ma’rifatparvarlarining merosi muhim manba sifatida e’tiborga olinishi lozim.

Jadidlar faoliyatini tahlil qilganda, ularning asosiy maqsadi – xalq ongini yoritish, jamiyatni ma’rifat va san’at orqali uyg‘otish bo‘lganini ko‘ramiz. Ular teatrni ta’sirchan vosita sifatida baholaganlar, milliy ong, axloqiy qadriyatlar va estetik tarbiya vositasi deb bilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi jadidlar o‘z dramalari, darsliklari va maqolalarida sahna orqali g‘oyaviy tarbiya berish, xalqning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarni milliy ruhda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tarbiyalash kabi yuksak vazifalarni ilgari surganlar.

Bugungi kunda teatr ta'limida bu qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish va zamonaviy metodika bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Jadidlar asarlaridagi dramatik to'qnashuvlar, ijtimoiy ziddiyatlar, axloqiy tanlovlardan – aktyorlik mahoratini rivojlantirish uchun juda qulay materialdir. Chunki ular orqali bo'lajak aktyorlar nafaqat aktyorlik texnikasini, balki obrazga chuqur kirish, ijtimoiy mas'uliyatni anglash, tomoshabinga ta'sir o'tkazish kabi ichki kasbiy fazilatlarni ham o'zlashtiradi.

Metodik nuqtai nazardan olganda, jadidlar qarashlari asosida tuzilgan mashg'ulotlar aktyorlik ta'limiga yangicha yondashuv olib kiradi:

1. Sahna orqali tarbiyaviy g'oya yetkazish,
2. Tarixiy obrazlar bilan ishslash orqali milliy ongni shakllantirish,
3. O'zlikni anglash va o'z fikrini ifodalashda mustaqillikni kuchaytirish.

Zamonaviy aktyor – bu faqat sahna ijrochisi emas, balki jamiyat bilan muloqotga kirisha oladigan, o'zining badiiy pozitsiyasiga ega bo'lgan ijodkor shaxsdir. Jadidlar o'z asarlarida ana shunday shaxsni shakllantirish g'oyasini ilgari surganlar. Ularning pedagogik qarashlari, ayniqsa, Avloniy asarlarida ifodalangan ma'nnaviy tarbiya, estetik dunyoqarash, axloqiy yetuklik kabi tamoyillar bugungi aktyorlik ta'limi uchun beqiyos manbadir.

Muhokama qilish jarayonida yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim: jadidlar merosidan foydalanish faqat nazariy emas, balki amaliy-metodik jihatdan ham foydalidir. Ya'ni, ularning pyesalarini sahnalashtirish, tarixiy dramatik vaziyatlarni aktyorlik texnikasi asosida tahlil qilish, obrazlarni psixologik jihatdan yoritish orqali talabalarda kasbiy chuqurlik hosil bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ularni ijodiy mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik va estetik qarashlaridan foydalanish zamonaviy teatr ta'limi uchun muhim metodik asos bo'la oladi. Jadidlar faoliyatida san'at, xususan teatr vositasida xalq ongini uyg'otish, axloqiy poklanish, estetik did va ma'nnaviy ongni

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

yuksaltirish g‘oyalari markaziy o‘rinda turgan. Bu g‘oyalar hozirgi teatr va aktyorlik ta’limida yangicha yondashuvlar asosida qayta talqin qilinishi lozim.

Jadidlar tomonidan yozilgan dramatik asarlar, ulardagi axloqiy, ijtimoiy va milliy g‘oyalar, shuningdek, ularning sahnaga bo‘lgan munosabati, aktyorlik faoliyatining g‘oyaviy-madaniy asoslarini yoritishda beqiyos manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning merosi orqali aktyorlik ta’limida nafaqat sahna mahorati, balki shaxsiy kamolot, milliy identitet, estetik tafakkur va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim jihatlar rivojlantiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2006.
3. Fitrat A. Drammalar. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
4. Elbek (Xojamqulov). Teatr va maorif. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1991.
5. Aripov S. O‘zbek teatr san’ati tarixi. – Toshkent: Fan, 1985.
6. Qurbonov A. Aktyorlik mahoratlari asoslari. – Toshkent: Teatr san’ati instituti nashri, 2014.
7. Mirzayeva D. O‘zbek dramaturgiyasida ma’naviy qadriyatlar masalasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
8. Nazarova Z. Teatr ta’limi metodikasi: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: San’at, 2019.